

Qozondan uchuvchi repatriatsiya qatnoviga sotuv ochiq

2020 29 Sentabr

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z Vatanlariga qaytib kelishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi 2020-yil 23-sentyabr kuni Qozon shahridan Toshkentga amalga oshiriladigan charter qatnoviga erkin sotuv ochilganini ma'lum qiladi.

Parvozlarning jadvali va aviachiptalar narxi bilan aviakompaniyaning rasmiy veb-saytida tanishishingiz mumkin.

Yo'nalish	Reys raqami	Uchish/ketish vaqti	
Qozon - Toshkent	HY 3650	11:00/16:30	Chipta sotib olish

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga parvoz qilish faqat PCR tekshiruvidan o'tganligi to'g'risidagi (qatnov jo'nashidan oldin kamida 72 soat amal qiluvchi) ma'lumotnoma taqdim etilgan holda ruxsat berilishiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. PCR ma'lumotnomasi bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniya qatnovlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, shuningdek, "Uzbekistan Airways " Ajning eng yaqin sotuv ofislaridan yoki mintaqangizdagi aviakompaniya tashuvlarini sotish agentliklaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan mamnun bo'lamiz!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlarni tilaymiz!